

“Yil ayoli” milliy tanlovining tuman bosqichi bo‘lib o‘tdi

// 04.11.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yil-ayoli-milliy-tanlovining-tuman-bosqichi-bo-lib-o-tdi>



Shayxontohur tumanida “Yil ayoli” milliy tanlovining tuman bosqichi o‘tkazildi. Ushbu tanlov jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan, tashabbuskor va fidoyi ayollarni aniqlash, ularning mehnatini e‘tirof etish hamda ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.



Tadbirda "O'zkimyosanoat" AJ Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Ra'no Esanturdiyeva faol ishtirok etib, "Yilning eng yaxshi IT-dasturchi ayoli" nominatsiyasi bo'yicha taqdirlandi.



Ra'no Esanturdiyeva axborot texnologiyalari sohasida yuqori malaka, mas'uliyat va tashabbuskorlik bilan faoliyat olib borayotgan mutaxassis sifatida e'tirof etildi. U "O'zkiyosanoat" AJ tizimida raqamli jarayonlarni rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda IT sohasida ayollar salohiyatini oshirish yo'lida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.





Mazkur e'tirof nafaqat shaxsiy yutuq, balki "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi malakali mutaxassislar mehnatining e'tirofi, shuningdek, sohada gender tengligini ta'minlash va ayollar faolligini qo'llab-quvvatlash borasidagi izchil ishlarning amaliy natijasidir. "O'zkimyosanoat" AJ jamoasi Ra'no

Esanturdiyevani ushbu yutuq bilan tabriklaydi va kelgusidagi faoliyatida yanada katta muvaffaqiyatlar tilaydi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati